



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 78 sahifa,
1-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining innovatsion pedagogik kompetentligini rivojlantirish mexanizmi	10
Mirzaraxmonova Maftuna Ibroximjon qizi	
Elementlarini integratsiya qilish: nazariy va amaliy yondashuv	13
Ne'matov Karimjon Shavkat o'g'li	
O'qish savodxonligi darslarida kitobxonlik kompetensiyasini rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari ...	19
Mahmudova Shoira Shavkat qizi	
O'zbek milliy musiqasi asosida talablarda estetik did va ijro madaniyatini rivojlantirish metodikasi.....	25
Gadoyeva Muborak Jumaqulovna	
O'quvchilarning yozuv kompetensiyasini baholash mezonlarini takomillashtirish masalalari.....	30
Abdurashidova Xafiza Abdurashidovna	
Xurshid Do'stmuhammad qissalarida rivoyatchi strategiyasi.....	34
Uzoqova Nargiza Yuldosh qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirishda innovatsion texnologiyalarining ahamiyati	37
Eshpulatov Shakir Nabiyevich, Ahrorova Ozoda Amriddinovna	
"Xonada o'simliklarni o'stirish" intellekt xaritasi (Mind Map) yordamida o'quvchilarda ekologik tarbiya va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish	41
G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlarning tashkiliy-pedagogik jihatlari.....	46
Joldasov Ixtiyor Suyundikovich	
Boshlang'ich sinflarda iqtisodiy tarbiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari	50
N. Asadov	
Bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda kreativ kompetentlik va kasbiy muvaffaqiyat o'rtasidagi bog'liqlik mezonlari.....	53
G. Xamidova	
Gamifikatsiya elementlarining bakalavr talabalarini raqamli resurs yaratishga motivatsiyasiga ta'siri	56
Maxkamova Dilshodaxon Xabibjon qizi	
The Influence of Family Parenting Style on the Formation of Primary School Students' Personality	59
Berdiyeva Mohloroyim Mirzohid qizi	
Noto'liq oilalardagi onalarning tarbiyaviy uslublari va farzandlarining ijtimoiy-psixologik moslashuvi (O'zbekiston namunasida).....	64
Ismoiljonov Ravshan Baxtiyor o'g'li	
Raqamli pedagogika sharoitida interfaol ta'lim metodlari asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish.....	69
Jumaniyozova Donoxon Olimboyevna, Bekmuratova Muhayyo Uralbayevna	
Matematika ta'limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning metodik asoslari.....	73
Mirzayeva Shahlo, Qodirova Muattar Ilhom qizi, Rovshanova Yulduz Shovkat qizi	



BO'LAJAK PEDAGOGLARNI TAYYORLASHDA KREATIV KOMPETENTLIK VA KASBIY MUVAFFAQIYAT O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK MEZONLARI

G. Xamidova

Jizzax davlat pedagogika universiteti,
Maktabgacha ta'lim nazariyasi va metodikasi kafedrasida dotsenti

Annotatsiya: Bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida kreativ kompetentlik va kasbiy muvaffaqiyat o'rtasidagi bog'liqlik masalalari yoritilgan. Kreativ kompetentlikning tarkibiy komponentlari, uni rivojlantirish mezonlari hamda pedagogning kasbiy faoliyatiga ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, innovatsion yondashuvlar asosida mazkur kompetensiyani shakllantirishning samarali usullari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: kreativ kompetentlik, kasbiy muvaffaqiyat, pedagogik faoliyat, innovatsion yondashuv, kompetensiyaviy ta'lim, ijodiy fikrlash.

Abstract: The relationship between creative competence and professional success in the training process of future teachers is examined. The structural components of creative competence, the criteria for its development, and its influence on professional activity are analyzed. Effective methods for developing this competence based on innovative approaches are also highlighted.

Key words: creative competence, professional success, pedagogical activity, innovative approach, competency-based education, creative thinking.

Аннотация: Рассматриваются вопросы взаимосвязи креативной компетентности и профессионального успеха в процессе подготовки будущих педагогов. Проанализированы структурные компоненты креативной компетентности, критерии её развития, а также влияние на профессиональную деятельность педагога. Кроме того, раскрыты эффективные способы формирования данной компетенции на основе инновационных подходов.

Ключевые слова: креативная компетентность, профессиональный успех, педагогическая деятельность, инновационный подход, компетентностное обучение, творческое мышление.

KIRISH

Hozirgi globallashuv sharoitida ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri – kreativ, mustaqil fikrlovchi va innovatsion yondashuvga ega pedagog kadrlarni tayyorlashdir. Zamonaviy pedagog nafaqat bilim beruvchi, balki ijodiy muhit yaratuvchi, muammolarni hal etuvchi va yangi pedagogik g'oyalarni ilgari suruvchi shaxs bo'lishi zarur.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini tubdan isloh qilishga qaratilgan bir qator muhim normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son¹ Qonuni ta'lim jarayonida shaxsning ijodiy va intellektual rivojlanishini ustuvor yo'nalish sifatida belgilaydi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son² Farmonida oliy ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, kreativ fikrlovchi kadrlarni tayyorlash zarurligi ta'kidlangan. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-son³ Farmonida ilmiy-ijodiy faoliyatni rivojlantirish orqali pedagoglarning kreativ salohiyatini oshirish masalalari ko'zda tutilgan. Mazkur hujjatlar bo'lajak pedagoglarda kreativ kompetentlikni shakllantirish va uni kasbiy muvaffaqiyat bilan bog'liq holda o'rganishning dolzarbligini asoslaydi.

1 O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni: <https://lex.uz/docs/-5013007>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni: <https://lex.uz/docs/-4545884>

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-son Farmoni: <https://lex.uz/ru/docs/-5073447>

Kreativ kompetentlik – pedagogning yangicha fikrlashi, innovatsion g'oyalar yaratishi va muammolarni samarali hal etish qobiliyatini ifodalovchi kasbiy sifatdir. U quyidagi komponentlardan iborat: motivatsion (ijodiy faoliyatga qiziqish), kognitiv (bilim va tushunchalar), faoliyatli (amaliy ko'nikmalar), refleksiv (o'z faoliyatini baholash).

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy pedagogika ilmida kreativ kompetentlik masalasi bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishning muhim omillaridan biri sifatida talqin qilinmoqda. Ilmiy tadqiqotlarda kreativlik pedagogning innovatsion fikrlashi, nostandart vaziyatlarda samarali qaror qabul qilishi hamda yangi pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish qobiliyati bilan bog'liq holda o'rganiladi. Tadqiqotchilar fikricha, kreativ kompetentlik nafaqat pedagogning individual sifati, balki ta'lim jarayonining samaradorligini oshiruvchi muhim kasbiy omil ham hisoblanadi.

Najmiddinova (2025) o'z tadqiqotlarida bo'lajak pedagoglarda kreativ kompetentlikni shakllantirishning tarkibiy mezonlarini tahlil qilib, kreativlikni divergent fikrlash, innovatsion yondashuv va kasbiy moslashuvchanlik bilan bog'laydi. Muallifning ta'kidlashicha, pedagogning ijodiy faoliyatga moyilligi va yangilikka intilishi uning professional rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, kreativ kompetentlik pedagogning o'quv jarayonini samarali tashkil etishiga, talabalarda mustaqil va erkin fikrlashni rivojlantirishiga xizmat qiladi.

Karimova (2022) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda pedagog kreativligining o'quv-bilish faoliyatiga ta'siri asoslab berilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, kreativ yondashuvga ega pedagoglar dars jarayonida interaktiv metodlardan samarali foydalanadi hamda talabalar faolligini oshirishga erishadi. Bu esa talabalarning ichki motivatsiyasini kuchaytirib, o'quv jarayonida yuqori natijalarga erishish imkonini yaratadi. Muallif pedagogning kreativligi va talabaning kasbiy shakllanishi o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjudligini alohida ta'kidlaydi.

Mirsagatova (2025) ilmiy izlanishlarida kreativlik va kasbiy kompetentlikning o'zaro integratsiyasi masalalariga e'tibor qaratadi. Tadqiqotlarda pedagogning metodik moslashuvchanligi, tanqidiy fikrlashi hamda muammoli vaziyatlarda innovatsion qaror qabul qila olishi uning kasbiy muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida ko'rsatilgan. Muallifning fikricha, kreativ kompetentlik pedagogning kasbiy barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Xorijiy olimlar, xususan, K. Robinson va J. Piaget izdoshlari kreativlikni zamonaviy ta'limning ajralmas qismi sifatida baholaydilar. Ularning ilmiy qarashlarida kreativ fikrlash pedagogik faoliyatning samaradorligini oshiruvchi, ta'lim jarayonini insonparvarlik tamoyillari asosida tashkil etuvchi muhim vosita sifatida talqin etiladi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar rivojlangan sharoitda pedagogning kreativ salohiyati uning kasbiy muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy mezonlardan biri ekanligi qayd etiladi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kreativ kompetentlik pedagogning kasbiy muvaffaqiyatini ta'minlovchi muhim omillardan biri bo'lib, u innovatsion faoliyat, metodik moslashuvchanlik va pedagogik mahorat bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bois bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida kreativ kompetentlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zamonaviy ta'limning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida bo'lajak pedagoglarning kreativ kompetentligi va kasbiy muvaffaqiyati o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash maqsadida pedagogik kuzatish, so'rovnoma, suhbat va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot uchun oliy pedagogik ta'lim muassasalari talabalari va amaliyotchi pedagoglardan ma'lumotlar yig'ildi. So'rovnoma orqali respondentlarning kreativ fikrlash darajasi, innovatsion yondashuvlarga munosabati hamda kasbiy faoliyatdagi natijadorlik ko'rsatkichlari o'rganildi.

Olingan ma'lumotlar statistik va mazmuniy tahlil asosida qayta ishlanib, kreativ kompetentlikning kasbiy muvaffaqiyatga ta'sir darajasi aniqlashtirildi. Shuningdek, ilmiy adabiyotlar tahlili yordamida kreativ kompetentlikning tarkibiy mezonlari va uni rivojlantirish omillari umumlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

“Bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda kreativ kompetentlik va kasbiy muvaffaqiyat o'rtasidagi bog'liqlik mezonlari” mavzusidagi tadqiqotlarning muhokama va natijalari qismini quyidagi mantiqiy tuzilma asosida yoritish mumkin.

Muhokama jarayonida kreativlik va muvaffaqiyat o'rtasidagi bog'liqlik quyidagi ierarxik tizimda ekanligi aniqlandi:

1. An'anaviy dars ishlanmalarini vaziyatga qarab o'zgartira olish qobiliyati pedagogning ilk darslaridanoq muvaffaqiyat qozonishiga, ya'ni auditoriyani jalb qila olishiga sabab bo'ladi.
2. Najmiddinova (2025) ta'kidlaganidek, yangicha fikrlash muammolarni hal qilish tezligini oshiradi. Bu esa pedagogning jamoada “ekspert” sifatida tan olinishini ta'minlaydi.



3. Kreativ pedagog – qiziqarli dars – o‘quvchi motivatsiyasining oshishi – yuqori sifat ko‘rsatkichi zanjiri kasbiy muvaffaqiyatning moddiy va ma‘naviy ko‘rinishini ifodalaydi.

Adabiyotlar tahlili va o‘tkazilgan kuzatishlar (Karimova, 2022; Mirsagatova, 2025) asosida quyidagi ilmiy muhokama nuqtalari ilgari suriladi: ko‘p hollarda nazariy bilim darajasi yuqori bo‘lgan talabalar amaliyotda kreativlik yetishmasligi sababli muvaffaqiyatsizlikka uchraydilar. Demak, IQ (bilim) va CQ (kreativlik koefitsiyenti) o‘rtasidagi muvozanat kasbiy muvaffaqiyatning asosiy mezonini hisoblanadi. OTMda yaratilgan innovatsion muhit talabadagi kreativlikni “uyg‘otuvchi” katalizator vazifasini bajaradi. Kreativlik faqat shaxsiy sifat emas, balki ijtimoiy-pedagogik mahsul hamdir.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash modeliga quyidagilarni kiritish tavsiya etiladi:

- talabalarni “tayyor dars ssenariysi”dan voz kechib, har safar yangi metod o‘ylab topishga undovchi amaliyotlarni tashkil etish;
- har bir darsdan so‘ng “Qanday qilib yanada yaxshiroq va kreativroq qilish mumkin edi?” degan savol ustida ishlash.

Kreativ kompetentlik pedagogning kasbiy muvaffaqiyatini belgilovchi integral sifat bo‘lib, u innovatsion faoliyat, muammolarni hal qilish tezligi va ta‘lim natijadorligi orqali namoyon bo‘ladi.

Kreativ kompetentlik va kasbiy muvaffaqiyat o‘rtasidagi bog‘liqlik quyidagi jihatlar orqali namoyon bo‘ladi:

- innovatsion faoliyat – kreativ pedagog yangi metod va texnologiyalarni qo‘llaydi;
- muammoli vaziyatlarni hal qilish – noodatiy yondashuv orqali samarali yechim topadi;
- moslashuvchanlik – ta‘limdagi o‘zgarishlarga tez moslashadi;
- natijadorlik – o‘quvchilarning bilim va kompetensiyalari oshadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, kreativ kompetentlik pedagogning kasbiy muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy mezonlardan biridir. Kreativ pedagoglar o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, qiziqish va faollikni shakllantira oladi.

Hozirgi kunda ta‘lim tizimida quyidagi muammolar mavjud:

- kreativ kompetentlikni baholash mezonlarining aniq emasligi;
- pedagoglarning innovatsion yondashuvlardan foydalanish darajasining yetarli emasligi;
- an‘anaviy o‘qitish metodlarining ustunligi;
- amaliy mashg‘ulotlarning yetishmasligi.

Muammoni hal etish yo‘llari sifatida kreativ kompetentlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan maxsus dasturlar yaratish, interfaol va innovatsion metodlarni keng joriy etish, pedagoglar uchun trening va seminarlar tashkil etish, baholash tizimini takomillashtirish hamda xalqaro tajribani o‘rganish tavsiya etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kreativ kompetentlik pedagogning kasbiy muvaffaqiyatini ta‘minlovchi muhim omil hisoblanadi. Uni rivojlantirish orqali pedagogning innovatsion faoliyati oshadi, ta‘lim sifati yaxshilanadi va zamonaviy talablar darajasida mutaxassislar tayyorlanadi.

Kreativ kompetentlik va kasbiy muvaffaqiyat o‘rtasidagi bog‘liqlik mezonlari pedagogning professional rivojlanish darajasini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, kreativ kompetentlik pedagogning professional o‘shish trayektoriyasini belgilab beradi. Shu sababli oliy pedagogik ta‘lim jarayonida talabalarning ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqaruvchi innovatsion muhitni yaratish kasbiy muvaffaqiyatning asosiy omili bo‘lib qoladi.

Tavsiyalar

1. Pedagogik ta‘limda kreativ kompetentlikni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratish;
2. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish;
3. Baholash mezonlarini ishlab chiqish;
4. Pedagoglar uchun trening va seminarlar tashkil etish;
5. Xalqaro tajribani joriy etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Najmiddinova S. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativ kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari. – 2025.
2. Karimova B. Kreativ pedagogika. – Toshkent, 2022–2023.
3. Egamberdiyeva D. Kreativ pedagogika va fikrlash kompetentligi. – 2024.
4. Mirsagatova N. Pedagogning kasbiy kompetentligi va kreativ rivojlanishi. – 2025.
5. Usmonaliyev I. Pedagogik ijodkorlik va kreativ tasavvur. – 2024.
6. OECD. Education 2030 Framework. – 2019.
7. UNESCO. Creativity and Critical Thinking. – 2019.
8. Robinson K. Creative Schools. – 2015.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.